

SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI MAVJUD BEMORLARDA BUYRAK DISFUNKSIYASINING KASALLIK KECHISHIGA TA'SIRI

Xodjanova Sh.I.¹,

Boqiyeva D.R.²,

Jabbarov A.A.³,

Umarova Z.F.⁴,

Kenjayev M.L.⁵,

Saydaliyev R.S.⁶,

Tursunova L.D.⁷,

Mirzayeva G.P.⁸,

Nadirova Y.I.⁹

e-mail: boqiyeva97@inbox.ru

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7592986>

ABSTRACT

So'nggi paytlarda surunkali yurak kasalligi bo'lgan bemorlarda buyrak kasalliklarining paydo uchrashi kasallikning kechishiga sezilarli darajada ta'siri borligi o'r ganilgan. Kardiorenal sindrom rivojlanishining asosiy patafiziologik mexanizmlarini, buyrak kasalliklarining surunkali yurak yetishmovchiliga ta'sirini yurak ichi gemodinamikasi o'zgarishlariga bog'liq holda o'r ganish kasallikga erta diagnoz qo'yish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni bemor uchun muqobil davolash rejasini tuzish orqali oldini olishga yordam beradi.

ARTICLE INFO

Received: 21th January 2023

Accepted: 30th January 2023

Online: 31th January 2023

KEY WORDS

Surunkali yurak yetishmovchiligi (SYuYe), kardiorenal sindrom, Surunkali buyrak kasalligi (SBK).


Surunkali yurak yetishmovchiligi – yurakning nasos funksiyasini bajara olmasligi natijasida organlarda qon aylanishining yetishmovchiligi bilan yuzaga keladigan patologik jarayon. Bugungi kunga qadar buyrak kasalliklari yurak kasalliklari kechishiga ta'siri yoki aksincha yurak kasalliklarining buyrak kasalliklariga ta'siri, organ yetishmovchiligini keltirib chiqarish mexanizmlari to'laligicha o'r ganilmagan. Dastlab 1800 – yillar boshida Richard Bright birinchi marta yurak va buyrak kasalliklari orasidagi bog'liqlikni aytib o'tganiga qaramay, 1 asr o'tib bu o'z tasdig'ini topgan. Yurak va buyrak kasalliklarining tez-tez birga uchrashida "kardiorenal sindrom" deya ta'riflangan tushuncha shuni anglatadiki bu ikki organdan birida sodir bo'layotgan patologik o'zgarishlar ikkinchi organning disfunksiyasiga va hattoki surunkali yetishmovchiliga ham sabab bo'lishi mumkin. Olib borilgan tekshirishlarga ko'ra surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarning deyarli 50% da buyraklar disfunksiya aniqlangan [1]. Yurak yetishmovchiligi rivojlanishida renin angiotensin aldosterone tizimi ham alohida rol o'ynaydi. Buyraklarda har qanday perfuziya bosimining pasayishi undagi renin angiotensin aldosterone sistemasining faollashishiga olib keladi. YuGA hujayralaridan reninning ajralib chiqishi hamda angiotensin peptidining angiotenzinga 1 (A1) ga aylanishi ga sabab bo'ladi. A1 esa angiotenzinga aylantiruvchi ferment (AAF) orqali angiotenzin 2 ga o'tadi. AAF buyrakda, yurakda, arteriyalarda joylashgan angiotensin



retseptorlariga ta'sir ko'rsatadi. Buyrak usti bezida A2 ning retseptorlarga ta'siri natijasida aldosterone ishlab chiqariladi va organizmda ortiqcha natriy hamda suvni ushlab qolish hisobiga organizmda aylanib yurgan qon hajmi sezilarli darajada oshadi. Bundan ko'rinish turibdiki, yurak va buyrakning faoliyati bir biriga chambarchas bog'langan organizm uchun muhim bo'lgan 2 muhim a'zodir.


Yurak yetishmovchiligining asosida 70-75% hollarda qorinchalar sistolik disfunksiyasi, 25-30% hollarda diastolik disfunksiyasi yuzaga kelishi sabab bo'ladi. Yurak kasalliklari va buyrak disfunksiyasi mavjud bemorlarda yurakning pasaygan zarb hajmi bilan bog'liqlik o'rganilgan bo'lsada, bu ikki kasallik bilan kasallangan bemorlarda zarb hajmining saqlanib qolishi o'rtasidagi bog'liqlik yetarlicha o'rganilmagan. Holbuki, surunkali yurak kasalligi bor bemorlarning taxminan 50% da zarb hajmining saqlanish holati kuzatilgan [2,5]. Pasaygan zarb hajmi bilan kasallangan bemorlar uchun davolash chora tadbirdari to'laligicha o'rganilgan va amaliyotga tadbiq etilgan. Bundan farqli o'laroq zarb hajmi saqlangan bemorlarda olib borilgan klinik sinovlar salbiy yoki munozaralarga sabab bo'luvchi natijalarni ko'rsatib kelmoqda.

Saqlangan zarb hajmi va surunkali buyrak yetishmovchiligi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Surunkali yurak yetishmovchiligidagi saqlangan zarb hajmi, o'rtacha kamaygan zarb hajmi, kamaygan zarb hajmi mavjud guruhli bemorlar tekshirilganda, buyrak disfunksiyasining uchrashi yuqoridagi barcha guruh bemorlar uchun o'lim xavfinining oshishiga olib keladi. Ammo eng ko'p o'lim ko'rsatkichi surunkali yurak yetishmovchiligining saqlangan zarb hajmi turida buyrak yetishmovchiligi bilan birga kechgan holda yuqori bo'lish holati sodir bo'lgan [3,15].



Saqlangan zarb hajmi va surunkali buyrak yetishmovchiligi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Surunkali yurak yetishmovchiligidagi saqlangan zarb hajmi, o'rtacha kamaygan zarb hajmi, kamaygan zarb hajmi mavjud guruhli bemorlar tekshirilganda, buyrak disfunksiyasining uchrashi yuqoridagi barcha guruh bemorlar uchun o'lim xavfinining oshishiga olib keladi. Ammo eng ko'p o'lim ko'rsatkichi surunkali yurak yetishmovchiligining saqlangan zarb hajmi turida buyrak yetishmovchiligi bilan birga kechgan holda yuqori bo'lish holati sodir bo'lgan [3,10].

Bir guruh olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, 62% bemorlarda saqlangan zARB hajmi bo'lishi buyrak yetishmovchiliga xos bo'lgan markeri [4]. Shuningdek surunkali buyrak yetishmovchiligi va saqlangan zARB hajmi o'rtasidagi bog'liqlik kalamushlar ustida olib borilgan tajribada yaqqol namoyon bo'lgan. Kalamushlarda sun'iy surunkali buyrak yetishmovchiligin keltirib chiqarish uchun ularda 1 ta buyragida nefroektomiya amaliyoti o'tkazilgan. Kalamushlarda nefron massasining kamayishi bilan fenotipga mos ravishda chap qorincha gipertrofiyasi va diastolik disfunksiya kuzatildi. Ammo o'pka gipertenziysi va jismoniy mashqlarga tolerantlik kabi saqlangan zARB hajmi ko'rsatkichlarida o'zgarish kuzatilmagan [6,7]. Bundan ko'rinish turibdiki, nefron massasining kamayishi ma'lum bir kompensator mexanizmlar tufayli surunkali yurak yetishmovchilida zARB hajmining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi.



Shuningdek, gemodializ bosqichidagi bemorlarning ko'pchiligidagi diastolik disfunksiya va chap qorincha gipertrofiyasi kuzatilgan bir paytda, yurakning sistolik disfunksiyasi va zARB



hajmining pasayishini juda kam hollarda ko'rish mumkin. Shuni qayd etib o'tish joizki, gemodializ uchun kelgan bemorlarning 74% da chap qorincha gipertrofiyasi rivojlangan [8-15]. Bundan farqli ravishda, sistolik disfunksiya va chap qorincha dilatatsiyasining uchrashi faqatgina mos ravishda 15% va 32% ni tashkil etgan [8]. Chap qorincha gipertrofiyasi faqatgina surunkali buyrak yetishmovchiligining so'nggi bosqichlarida uchrab qolmay balki erta bosqichlarida ham namoyon bo'lib, bu kasallik bilan kasallangan bemorlarning katta qismida uchraydi.

Surunkali yurak yetishmovchiligining saqlangan zARB hajmi shakli bilan birgalikda surunkali buyrak kasalliklarining uchrashi holatini hisobga olgan holda, surunkali buyrak kasalligini mikrovaskulyar koronar tomirlar disfunksiyasi keltirib chiqarishi, chap qorincha gipertrofiyasi va diastolik disfunksiya qay darajada sabab bo'lishi ustida turli tadqiqodlar olib borilmoqda. Turli mexanik ta'sirotlar, neyrogumoral boshqaruvi tizimi, yallig'lanish jarayonlari, kamqonlik va mineral almashinuvdag'i buzilishlar bemorlarda yuqoridagi belgilarni rivojlanishi uchun sabab bo'lishi va surunkali yurak yetishmovchiligining saqlangan zARB hajmi turini rivojlanishi uchun sabab bo'lishi aniqlangan. Buni quyidagi sxema orqali ham ko'rishimiz mumkin (1-jadval). Gipertenziya paydo bo'lishi chap qorincha gipertrofiyasi rivojlanishi uchun muhim belgi bo'lib, bunday hollarda zARB hajmi saqlanishi kuzatiladi. Qon bosimining pasayishi esa yurak qon tomir kasalliklaridan o'lim xavfini kamaytiruvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek ta'kidlab o'tish joizki, surunkali buyrak kasalliklarida predializ va dializ holatida yurak diastolik funksiyasining pasayishi va regional sistolik disfunksiya paydo bo'lishi bilan birga bo'ylama, aylana va radikal kuchlanishlar orqali zARB hajmi saqlanib qoladi. Bunga mos ravishda, surunkali yurak yetishovchiligi bor bemorlarda sistolik disfunksiyaning uchrashi doppler yordamida o'lchanadigan bo'ylama kuchlanish va S`tezligining pasayishi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi [2-7].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yurak va buyrak bir-biri bilan turli mikrovaskulyar vamikrovaskulyar darajada bog'langan mustaqil organlar bo'lib hisoblanadi Surunkali yurak yetishmovchiligining saqlangan zARB hajmli shakli bilan kasallangan bemorlar faqatgina diastolik disfunksiyaning uchrashi emas balki, sistolik disfunksiya va o'lim xavfi parallel ravishda buyrak disfunksiysi bosqichida oshib boradi.

Afsuski, kardiorenal bog'liqlik o'rtasida izlanishlar olib borilgan bo'lsada, surunkali yurak yetishmovchiligi saqlangan zARB hajmi bilan kasallangan qismi to'laligicha o'rganilmagan. Hozirgi kunda surunkali yurak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarda asosiy e'tibor turmush tarzini yaxshilashga va ikkilamchi kasalliklar (qandli diabet, gipertoniya, semizlik, buyrak kasalliklari) rivojlanishini oldini olishga qaratilgan.

References:

1. "Renal dysfunction in cardiovascular disease and its consequences" Adriano Cipriani, Edoardo la Porta, Giacomo Deferrari .Journal of nephrology (2021)34:137-153 <https://doi.org/10.1007/s40620-020-00842-w>
2. "Chronic kidney disease as a risk factor for heart failure with preserved ejection fraction: A focus on microcirculatory factors and therapeutic targets. Marianne C. Verhaar, Dirk J. Duncker, A. H. Jan Danser and Daphne Merkus



3. <https://doi:10.3389/fphys.2019.01108>
4. "Non cardiac comorbidities in heart failure with reduced, mid-range and preserved ejection fraction". Streng, K.W, Nauta J.F., Hillege ,H., Anker S.D. Cleland J.G., Dickstein, K. et all (2018) Int.J. Cardiol 271, 132-139
5. <https://doi:10.1016/j.ijcard.2018.04.001>
6. "Assosiation between renal function and cardiovascular structure and function in heart failure with preserved ejection fraction". Gori M, Senni M, Gupta D., Chartyan D, et al (2014) Eur, Heart j. 35, 3442-3451
7. <https://doi:10.1093/eurheartj/ehu254>
8. KhodzhanovaShakhnozalskandarovna. (2022). Evaluation Of Platelet Aggregation Activity Depending on The Duration of Antiplatelet Administration in Patients with Coronary Heart Disease. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 754–760.
9. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.086>
10. Кодирова Ш.А., Ходжанова Ш.И. (2022). ФАКТОРЫ РИСКА, ВЛИЯЮЩИЕ НА ТЕЧЕНИЯ ОСТРОГО КОРОНАРНОГО СИНДРОМА. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 1(6), 109–110.
11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7312294>
12. Rakhmatov A.M., Jabbarov A.A., KodirovaSh.A., Jumanazarov S.B. (2022). CLINICAL MANIFESTATIONS OF GOUTHY NEPHROPATHY. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 1(6), 140–141.
13. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7322196>
14. Anis, Alyavi, KhodjanovaShakhnoza, and KadirovaShoira. "Role of the acetylsalicylic acid in the treatment of coronary artery disease." BiomedicalResearch 31.4 (2020): 82-85.
15. Alyavi, A. L., Khodjanova, S. I., Uzokov, J. K., &Kadirova, S. (2021). Aspirin Resistance in Patients with Chronic Coronary Syndrome. Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology, 15(3), 1843.
16. Ходжанова Ш., Утемуратов Б., Кадырова Ш. АГРЕГАЦИЯ ТРОМБОЦИТОВ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РЕЗИСТЕНТНОСТЬ К АСПИРИНУ У БОЛЬНЫХ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА //InterConf. – 2020.
17. Турсунова, Л., Жаббаров, О., Мирзаева, Г., Жуманазаров, С., & Хужаниязова, Н. (2022). КАРДИОРЕНАЛ СИНДРОМДА АНГИОТЕНЗИН-НЕПРИЛИЗИН РЕЦЕПТОРЛАРИ ИНГИБИТОРЛАРИНИНГ БҮЙРАК ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ.
18. Сайдалиев Р. С., Кодирова Ш. А., Назарова М. Х. Усовершенствование Антигипертензивной Терапии У Больных С Метаболическим Синдромом. – 2022.
19. Умарова З. Ф., Кучкарова Ш. А., Султонов Н. Н. РОЛЬ БЛОКАТОРОВ КАЛЬЦИЕВЫХ КАНАЛОВ В ЛЕЧЕНИИ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПERTONII ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК //ИЖТИМОЙ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т.2. – №. 1. – С. 126-132.
20. Максудова М. Х., Марксов А. Ф. О., Марксов И. Ф. О. ВЛИЯНИЕ СВЕЧЕВОГО ДИАБЕТА НА РЕЗИСТЕНТНОСТЬ К АСПИРИНУ У ПАЦИЕНТОВ С ЗАБОЛЕВАНИЯМИ СЕРДЦА //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 596-604.



21. Мирзаева Г. П., Турсунова Л. Д. НЕКОТОРЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СУТОЧНОГО МОНИТОРИРОВАНИЯ АРТЕРИАЛЬНОГО ДАВЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ //Противоречия современной кардиологии: спорные и нерешенные вопросы. – 2019. – С. 40-40.
22. Сапаева, З. А., Жаббаров, О. О., Кадирова, Ш. А., & Ходжанова, Ш. И. (2019). ВЛИЯНИЕ АНТИГИПЕРТЕНЗИВНЫХ ПРЕПАРАТОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ У БОЛЬНЫХ С СИСТЕМНОЙ КРАСНОЙ ВОЛЧАНКИ. Экономика и социум, (10), 266-271.
23. Надирова Ю. И., Нуриллаева Н. М. РОЛЬ ГЕНЕТИЧЕСКОГО ПОЛИМОРФИЗМА ГЕНА MTHFR С РИСКОМ РАЗВИТИЯ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА //Современная медицина: новые подходы и актуальные исследования. – 2019. – С. 20-23.
24. Сайдалиев Р. С., Кодирова Ш. А., Назарова М. Х. Усовершенствование Антигипертензивной Терапии У Больных С Метаболическим Синдромом. – 2022.
25. "Allopurinol reduces cardiovascular risks and improves renal function in pre-dialysis
26. chronic kidney disease patients with hyperuricemia" Sezer, S., Karakan, S., Atesagaoglu, B., and Acar, F. N. (2014). Saudi J. Kidney Dis.Transpl. 25, 316–320.
27. "Chronic kidney disease induces left ventricular overexpression of the prohypertopic micro RNA -212" Sarkozy M, Gaspar R. Zvara A.Siska A. Kovari B. Szucs G.et al (2019) Sci . Rep. 9:1302
28. <http://doi10.1038/s41598-018-37690-5>
29. "Cardiovascular implications of proteinuria: an indicator of chronic kidney disease." Agrawal, V., Marinescu, V., Agarwal, M., and McCullough, P. A. (2009) Nat. Rev. Cardiol. 6, 301–311.
30. <http://doi:10.1038/nrccardio.2009.11>
31. "Left ventricular hypertrophy in new hemodialysis patients without symptomatic cardiac disease." Foley, R. N., Curtis, B. M., Randell, E. W., and Parfrey, P. S. (2010)
32. Clin. J. Am. Soc. Nephrol. 5, 805–813.
33. <http://doi:10.2215/CJN.07761109>
34. "Surunkali yurak yetishmovchiligi" Milliy tibbiyiot <https://milliytibbiyot.uz/uz/surunkali-yurak-yetishmovchiligi/?amp>
35. Muxin N.A. (i dr.) Terapevticheskiy arxiv 2004 № 6 39-46
36. Tursunova L.D Jabbarov O.O. Toshkent Tibbiyot akademiyasi axborotnomasi № 2 2021 48-49.
37. Testani JM, Chen J, McCauley BD, Kimmel SE, Shannon RP (2010) Potential effects of aggressive decongestion during the treatment of decompensated heart failure on renal function and survival. Circulation 122:265–272
38. Verbrugge FH, Dupont M, Steels P, Grieten L, Swennen Q et al (2014) The kidney in congestive heart failure: 'are natriuresis, sodium, and diuretics really the good, the bad and the ugly?'. Eur J Heart Fail 16:133–142
39. Fudim M, Loungani R, Doerfler SM, Coles A, Greene SJ et al (2018) Worsening renal function during decongestion among patients hospitalized for heart failure: findings from the Evaluation Study of Congestive Heart Failure and Pulmonary Artery Catheterization Effectiveness (ESCAPE) trial. Am Heart J 204:163–173.